Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318523

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

O'ZBEKISTON S SHAROITIDA SINOV LABARATORIYALARINI AKKREDITATSIYAGA TAYYORLASH

Sobirjonov Kamoldin Shuxratbek o'g'li AndMI, Avtomobilsozlik fakulteti MSMSM yo'nalishi 4-kurs talabasi

Sinov labaratoriyasini akkreditatsiyaga tayyorlash

Preparation of testing laboratory for accreditation

Подготовка испытательной лаборатории к аккредитации

Annotatsiya

Ushbu maqolada labaratoriyani O'zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda akkreditasiyaga tayyorlash ko'rsatmalar keltirilib o'tilgan

Annotation

This article provides instructions for preparing the laboratory for accreditation based on the conditions of Uzbekistan

Аннотация

В данной статье приведены инструкции по подготовке лаборатории к аккредитации на условиях Узбекистана

Kalit so'zlar: Metrologiya, o'lchash, sinov laboratoriya, metrologik kuzatuvchanlik, O'z DSt ISO/IEC 17025:2019, kalibrlash, noaniqlik.

Ключевые слова: Метрология, измерения, испытательная лаборатория, метрологическая прослеживаемость, O'zDSt ISO/IEC 17025:2019, калибровка, неопределенность.

Keywords: Metrology, measurement, testing laboratory, metrological traceability, O'zDSt ISO/IEC 17025:2019, calibration, uncertainty.

O'zbekiston Respublikasida Labaratoriyalarni Akreditlashtirish Ishlarini Texnik jihatdan Tartibga solish agentligi olib boradi. Labaratoriyalarni Jahon standdartlariga talab beradigan Akreditatsiyadan otkazildi . Bunda Dastlabki chorakda laboratoriyalarni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish va rivojlantirish bo'yicha Markazning jami 9 ta sinov laboratoriyalari xalqaro va milliy akkreditatsiyadan o'tkazildi. Shundan 6 tasi milliy, 3 tasi xalqaro darajada akkreditlandi.

Jumladan, "UzTest" DM tarkibidagi Toshkent shahri sinov laboratoriyalar majmuasi hamda Andijon filiali sinov laboratoriyalari engil sanoat, mashinasozlik, neft-kimyo mahsulotlari va metall mahsulotlarini sinovlarini olib borish bo'yicha jami 867 ta sinov

Published: 10.11.2023

Cite this article: Sobirjonov Kamoldin Shuxratbek o'g'li (2023). O'zbekiston s sharoitida sinov labaratoriyalarini akkreditatsiyaga tayyorlash. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318523

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

uslublari bo‘yicha Belorussiya Akkreditatsiya idorasi (BGSA) dan xalqaro darajada akkreditatsiyadan utkazildi.Buning natijasida sinov laboratoriyalar tomonidan rasmiylashtirilgan sinov bayonnomalarni xalkaro darajada tan olinishiga xukukiy asosiy asos vujudga keldi. Shu bilan bir qatorda, respublikamizdagi ishlab chiqaruvchi eksportyor korxonalarga keng imkoniyatlar yaratilib, mahsulotlarni xorijiy davlatlarga eksportga yo‘naltirishga berilgan xulosalarni tan olinishiga hamda xorijiy davlatlarda ortiqcha sinovlar olib borilishi uchun qo‘shimcha xarajatlar tejalishiga erishilishi ko‘zda tutilgan.

O’zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish tizimini ishlab chiqishdan maqsad mahalliy mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarning muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatlar va boshqa hujjatlarni xalqaro tan olinishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu shart-sharoitlar O’zbekiston Respublikasining xalqaro akkreditlashtirish tizimi (ILAC, IAF)ga qo’shilishi va tan olish bo’yicha kelishuv tuzishda asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Tan olish xorijiy akkreditlashtirish tizimlari, bu tizimning xilma xil qiymatliligini hisobga olgan xolda akkreditlashtirish milliy tizimiga ishonishga asoslangan. Bunda sinov natijalari muvofiqligi va sertifikatlangan mahsulot sifati ko’rsatkichining barqarorligi muvofiqlikni tasdiqlash bo’yicha reglamentlangan xalqaro standartlarga muvofiq akkreditlangan sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, sinash, kalibrlash (qiyoslash) laboratoriyalari faoliyatlarining layoqatliligi bilan kafolatlanishi ko’zda tutilgan.

Har qanday faoliyat yoki yo‘nalish nima maqsadni ko‘zlashdan qat’iy nazar albatta qonunlashtirilishi , tartibga tushirilishi , faoliyatni olib boorish esa ma’lum me’yoriy hujjatlar asosida olib borilishi talab etiladi . xuddi shuningdek , akreditlashtirish faoliyati ham bundan mustasno emas

Olib borilayotgan islohotlar samarasi yanada oshirish, davlat va jamiyatning xar tomonlama va jadal rivojlanaishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish madsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022 yildagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilian tasdiqlangan taraqqiyotimizning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Raspublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqiyot Strategiyasi belgilab berildi

Qator mamlakatlarning qonunlarida mahsulotni xavfsizligi va atrof muhitni asrash bo‘yicha talablarning paydo bo‘lishi bilan sinovlarni davlat idoralarining vakillari ishtirokida o‘tkazilmoqda. Bunday tajriba sinovlarining milliy tizimini akkreditlanuvchi sinov labaratoriyalari bilan birga yaratilishiga olib keladi. Labaratoriyalarni akkreditlash deganda sinov labaratoriyasining ma’lum sinovlar yoki sinovlarning muayyan xillarini amalga oshirish huquqlarini rasmiy jihatdan tan olish

tushuniladi.Labaratoriyani akkreditatsiyaga tayyorlash uchun quyidagilar ketma-ketliklar bajariladi:

-labaratoriya hodimlarini O‘z Dst ISO 17025:2019 standarti talablari bo‘yicha;

-labaratoriyada qo‘llaniladigan labaratoriya qurilmalarini metrologik tekshiruvdan;

-labaratoriya binosini sanitar qoidalar va naorma talablariga moslashtirish;

-labaratoriya faoliyatini O‘z Dst ISO/IEC17025:2019 standarti talablari bo‘yicha hujjatlashtirish va hujjatlarni tasdiqlash.

Rasmiylashtirish va tasdiqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘plami:

1.Sifat qo‘llanmasi 2. Sifat siyosati 3. Protsedura hujjatlari:

Protsedura hujjatlari

a)Hujjatlarni boshqarish

b)Xodimlarni boshqarish

c)Qurilmalarni boshqarish

d)Qiyoslash va kallibrlash jarayoni

e)Ichki audit o‘tkazish

f)sinov namunalari bilan ishlash

g)O‘lchash va kallibrlash natijalarini ishonchliligi ta’minlash

h) Sinov bayonnomalarini rasmiylashtirish

i)Laboratoriya nizomi va pasporti

Sinov labaratoriyasini akkreditatsiyaga tayyorlash uchun quyidagi ko‘rinishdagi ma’lumotlar taqdim etiladi.

Sinov labaratoriyasini jihozlanganligi

Mahsulotda aniqlanishi kerak bo‘lgan xususSinov bayonnomalarini rasmiylashtirish iyatlar	Uskuna nomi, Turlari	Ishlab chiqaruvchi (qaysi davlatligi)	Asosiy texnik ko‘rsatkichlar	Foydalanishga kiritilgan yili	Uskunaning Attestatsiyalanganligi	Izoh
1	2	3	4	5	6	7

Analitik nazoratda standart namunalar bilan jihozlanganligi

Qo‘llanilayotgan	Namunaning	Attestatsiyalangan	Ko‘rsatkichlar xatoligi	Yaroqlilik	Attestatsiyalash	Qachon va kim tomonid	Izoh

satandart namunalar	nimi va №	ko‘rsatkichlar		muddati	guvohnomasi	an tasdiqlangan	
1	2	3	4	5	6	7	8

Bajarilayotgan ishlarga bo‘lgan talablarni va ularni bajarish usullarini belgilovchi me’yoriy hujjatlar ro‘yxati

Narmativ hujjatlar	Narmativ hujjatlar nomi	O‘zgartirishlar	Izoh
1	2	3	4

Akkreditatsiyalash sohasi bo‘yicha ishlarni amalga oshiruvchi xodimlar ro‘yxati

F.I.O‘	Lavozimi	Ma’lumoti	O‘tkaziladigan ishlar	Attestatsiyalanganligi to‘g‘risida	Izoh
1	2	3	4	5	6

Labaratoriya xonasi sharoitlari

Ishlab chiqarish xonasining nomi	Mxsus yoki moslashtirilgan	Maydonim	Temperatura	Namlik %	Ish joyining yorug‘ligi	Gazlanganlik darajasi mg/m	Shovqin darajasi norma,ortiq emas
1	2	3	4	5	6	7	8

Akreditlashtirish O‘zbekiston Respublikasi “Texnik jihatdan tartibga solish” agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda xalqaro srtandart ISO 17-025 srtandarti bo‘yicha amalga oshiriladi

O’zbekistonda mustaqil akkreditlashtirish milliy tizimi 1998 yilda yaratildi. Tizimni yaratish akkreditlash yo’li bilan tashkilotlar muvofiqligini baholash sohasida davlatning o’rnini kuchaytirishni yo’lga qo’yadi. Akkreditlash muvofiqlikni tasdiqlash sohasida o’zining layoqatliligini bahosini olishni ixtiyoriy istovchi sub’ektlar munosabatida amalga oshiriladi

Yuqoridagi ma’lumotlarda keltirilgan prosedura va talablar asosida sinov labaratoriyalarini tashkil etish, uni akkreditatsiyaga tayyorlash hamda prosedura hujjatlarini ishlab chiqish mexanizmlarini amalga oshirish mumkin. Bu esa Respublikamizda mahsulot sifatini ta’minlash va uning huquqiy asoslari, bu borada olib borilayotgan isloxotlar, chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash asoslaridan biri hisoblanadi.Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jaxon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal suratlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobka chiqarishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni 28.12.1993 y.
2. Maqsudov A.N., Ismatullayev P.R., Abdullayev A.X., Axmedov B.M., va Azamov A.A., Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darsligi, Toshkent-2001 y.
3. “Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti” A.A Mamajonov., D.V Xakimov., B.R Xamdamov.,
4. O‘z Dst ISO /IEC 17025:2019 standarti
5. WWW.standart.uz
6. WWW.akkred.uz

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

TEXNIK TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA MUTAXASSISLIK BO‘YICHA RUS TILI FANIDA LUG‘ATDAN FOYDALANISH.

Madumarova Muxayyo Djurayevna, assistent.

Askaraliyeva Oltinoy Axmadjon qizi 92-23 KT guruh talabasi

Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sifatli til ta'limi texnik ta’lim yo‘nalishlarida kommunikativ kompetentsiyani, shu jumladan til va nutq komponentlarini har tomonlama ta'minlash uchun o'qitish vazifasi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlari talabalarini tayyorlashda nutq faoliyatining barcha turlarini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, kompetentsiya, lingvistik, tipologik, ensiklopedik.

Texnik ta’lim yo‘nalishlarida "mutaxassislik bo'yicha rus tili" fanini o'zlashtirishning asosiy maqsadi kelajakdagi energetik mutaxassislar o'rtasida ijtimoiy-madaniy, kasbiy sohalarda shaxslararo aloqani o'rnatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat, qadriyatlar va shaxsning tashabbuslari to'plami bo'lgan rus tilida kompleks kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirishdir. Maqsad ko'plab muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi, shu jumladan talabalar leksikonini yanada shakllantirish va kengaytirish bo'yicha ishlar. Tilni to'liq va samarali o'rganish uchun har xil turdagi lug'atlardan foydalanmaslik mumkin emas. Lug'at ishi davomida talabalar ko'pincha turli lug'atlarga, ma'lumotnomalarga, lug'at tipidagi qo'llanmalarga murojaat qilishlari kerak. Sinfda talabalar turli xil lug'atlar (lingvistik va ensiklopedik) bilan ishlashadi, orfoepik, orfografik, izohli, frazeologik, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlarning lug'atlari, xorijiy so'zlarning lug'atlari, terminologik lug'atlar, rus tilining yangi so'zlari va ma'nolari lug'atlari va boshqalar kabi lingvistik lug'atlarning xilma-xilligi haqida bilib olishadi.

Ta'lim tizimining zamonaviy sharoitida talabalarning lug'at bilan mustaqil, individual ishining roli tobora ortib bormoqda. Talabalarning so'z boyligi ularning lingvistik kompetentsiyasining asosini tashkil etadi. Mutaxassislik bo'yicha matnlar bilan ishlash va ilmiy va texnik atamalarni o'zlashtirish talabalar uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Ushbu murakkab ishning usullaridan biri lug'at bilan ishlashdir. Mashhur rus tilshunos olimi V. V. Morkovkin talabalarning so'z boyligini shakllantirishda lug'atlarning katta rolini ta'kidlaydi va o'quv lug'atlari "aloqa va aloqa vositasi sifatida tilni o'rganishga yordam berish uchun"mo'ljallangan deb hisoblaydi.

Zamonaviy ta'limning muammolaridan biri o'quvchilarning o'qiganlarini tushunmasligi, matnning ma'nosi o'quvchini chetlab o'tishi va bu o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilim sifatining pasayishiga olib keladi va matn bilan puxta ishlashni talab qiladi. Talabalarni yangi texnik atamalar bilan tanishtirishda ba'zi umumiy yo'nalishlarni, ya'ni funksionallikni, ushbu so'z tushunchasining hayot bilan